



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Biz Tashkilotning izchil kengayishi tarafdorimiz. Chunki “SHHT modeli”ning muvaffaqiyati uning ochiqligi va keng ko'lami hamkorlikka yo'naltirilganidir. Biz o'z kelajagini SHHT bilan bog'liq holda ko'rayotgan davlatlarning itilishlarini qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

SHHTning muloqot bo'yicha sheriklari tarkibi, jumladan, boshqa mintaqa davlatlari hisobidan kengayib borayotgani Tashkilotni Global Janub mamlakatlari bilan hamkorlik platformasiga aylantirishga yordam beradi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik — SHHTning hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda kelishilgan yondashuvlarga hamda ishonch va xavfsizlikni ta'minlashning yangi mexanizmlariga talab kuchayib bormoqda.

Yadro xavfsizligi yo'lida ko'p tomonlama sheriklikni mustahkamlash bo'yicha SHHT deklaratsiyasini qabul qilish vaqti keldi deb hisoblaymiz. Ushbu deklaratsiya tinchlik yo'lidagi atomni rivojlantirish va favqulodda holatlarga javob qaytarishning mustahkam asosiga aylanadi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi tarqatmaslik global rejimiga munosib hissa bo'ladi.

Terrorizm va ekstremizmining tabiiati sezilarli ravishda o'zgarayotgani, kiberjinoyatchilik, sintetik narkotiklar ishlab chiqarish va aylanmasi o'sib borayotgani, uyushgan jinoyatchilik kuchayayotgani munosabati bilan bildirilayotgan xavotirlarga qo'shilamiz.

Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashish maqsadida Ichki ishlar va jamoat xavfsizligi vazirlari kengashi ishini qayta tiklash, Jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risidagi bitimni qayta ko'rib chiqish, G'iyohvandlikka qaram bo'lib qolishga qarshi kurashishning 2030-yilga qadar mo'ljallangan dasturini ishlab chiqishni taklif etamiz.

“SHHT — Afg'oniston” muloqot guruhi faoliyati qayta tiklanishini qo'llab-quvvatlaymiz. Konstruktiv muloqotlarni rivojlantirish va Afg'onistondagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi mumkin.

Boshlanishi 1-betda

Ishonchli ishlab chiqarish-logistika zanjirlarini rivojlantirish va o'zaro sarmoyalarni rag'batlantirish maqsadida SHHT doirasida Strategik materiallar bo'yicha mintaqaviy markaz, Energetika konsorsiumi, startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda ilgari surish uchun Venchur kompaniyalari va jamg'armalari tarmog'i, biznes bo'yicha muloqotlarni yo'lga qo'yish va investitsiyalarni ilgari surish uchun Maxsus elektron portal kabi bir qator yangi ko'p tomonlama tuzilmalar va kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash vositalarini joriy etish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari Shimol — Janub va Sharq — G'arb yo'nalishlari bo'yicha transport-tranzit salohiyatini to'liq ishga solish, Markaziy Osiyo orqali Fors ko'rfazi va Hind okeani portlariga chiqadigan janubiy yo'nalishdagi yo'laklarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

“SHHT yagona transport makoni”ni shakllantirish va uni “Bir makon, bir yo'l” strategik tashabbusi bilan bog'lash bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi ko'rsatib o'tildi. Yangi multimodal tarmoqlar, raqamli platformalar va “yashil” yo'laklar yaratishni nazarda tutuvchi konsepsiyani ishlab chiqish taklif etildi.

SHHTning “yashil” transformatsiya sohasidagi hamkorligini kengaytirish borasida iqlim o'zgarishiga moslashish, havoga zaharli gazlarni chiqarishni kamaytirish, ekologik xavf-xatarlarni bashorat qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari bo'yicha mintaqaviy platformani ishga tushirish zarurligi qayd etildi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan hozirgi tendensiyalarni hisobga olib, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Biz keng mintaqamizda iqtisodiy hamkorlikning barqaror modellari shakllantirish tarafdorimiz.

SHHT makonida mintaqaviy ichki mahsulot ayirboshlash hajmini oshirishga turkii beradigan Savdoni soddalashtirish tartib-taomillari to'g'risidagi bitim imzolanishini muhim vazifa deb hisoblaymiz.

Ishonchli ishlab chiqarish-logistika zanjirlarini rivojlantirish va o'zaro sarmoyalarni rag'batlantirish zarur ekanini ta'kidlamogochiman.

Shu munosabat bilan SHHT doirasida minerallarni qazib olish va chuqur qayta ishlashda ilg'or texnologiyalarni joriy etish maqsadida Strategik materiallar bo'yicha SHHT mintaqaviy markazi, mamlakatlarimizda muvofiqlashtirilgan siyosat olib borish va “yashil” energetikani jadal rivojlantirish uchun SHHT Energetika konsorsiumi, startup va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda ilgari surish uchun Venchur kompaniyalari va jamg'armalari tarmog'i, mamlakatlarimiz mintaqalarini jalb qilgan holda, biznes bo'yicha muloqotlarni yo'lga qo'yish va investitsiyalarni ilgari surish uchun Maxsus elektron portal kabi qator yangi ko'p tomonlama platformalar va kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash vositalarini tashkil etishni taklif qilaman.

Mintaqaviy sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali vositalarini tezroq joriy etish muhim. Ushbu masalani vakolatli vazirlar darajasida yana bir bor ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Shimol — Janub va Sharq — G'arb yo'nalishlari bo'yicha transport-tranzit salohiyatini to'liq ishga solish mamlakatlarimizning umumiy manfaatlariga javob beradi.

Markaziy Osiyo orqali Fors ko'rfazi va Hind okeani portlariga chiqadigan janubiy yo'nalishdagi yo'laklarni rivojlantirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biz “SHHT yagona transport makoni”ni shakllantirish va uni “Bir makon, bir yo'l” strategik tashabbusi bilan bog'lash bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun katta imkoniyatlarni ko'rmoqdami. Bu yangi

multimodal tarmoqlar, raqamli platformalar va “yashil” yo'laklar yaratishni nazarda tutadi. Bu borada tegishli ko'p tomonlama konsepsiyani ishlab chiqishni taklif etamiz.

Yana bir ustuvor yo'nalish — SHHTning “yashil” transformatsiya sohasidagi hamkorligini kengaytirish. Xitoy tomonining tashabbusi bilan “Yashil” sanoat sohasida hamkorlik to'g'risidagi bayonot o'z vaqtda qabul qilinmoqda deb hisoblayman.

Shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashish, havoga zaharli gazlarni chiqarishni kamaytirish, ekologik xavf-xatarlarni bashorat qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari bo'yicha mintaqaviy platformani ishga tushirish zarur.

Madaniy aloqalarni yanada chuqurlashtirish va xalq diplomatiyasi institutini kuchaytirish SHHT doirasidagi uzoq muddatli sheriklikning muhim omili hisoblanadi.

Xalq ijodiyoti xalqaro festivallarini o'tkazish, “SHHT universiteti” sheriklik tarmog'ining onlayn kampusini yaratish, innovatsion yo'nalishlar bo'yicha har yili talabalar va yosh mutaxassislar o'rtasida tanlov va olimpiadalar tashkil etish gumanitar almashuvlarni rivojlantirish va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga kuchli turkii berishi mumkin.

Bundan tashqari, “Sayyohlik yo'lagi” va SHHT tibbiyot turizmi alyansini ishga tushirish kabi istiqbolli loyihalarni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Fursatdan foydalanib, Qirg'iziston Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni qabul qilgani munosabati bilan Sadir Nurg'ojoyevichni tabriklab, Sizga bu borada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Nutqimning yakunida bugun qabul qilinayotgan Tyanszin deklaratsiyasi, SHHTni 2035-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi va boshqa yakuniy hujjatlar ko'pqirrali hamkorligimizni kengaytirish va zamonaviy tahdidlarga samarali yechimlar topishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi deb ishonch bildiraman.

Biz SHHT doirasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro foydali hamkorlikni mustahkamlash borasidagi umumiy vazifalarni hal qilish uchun ishlarni birgalikda davom ettirishga tayyormiz.

E'tiboringiz uchun rahmat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI PLYUS” FORMATIDAGI MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu maqsadga erishish ko'p jihatdan Afg'onistonda, umuman, butun mintaqada uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikdan manfaaddor bo'lgan SHHT davlatlarining siyosiy irodasiga bog'liq.

Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklash va u bilan mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish maqsadida SHHTdagi sheriklarimiz bilan keng ko'lami hamkorlikka tayyormiz.

Uchinchi. Mavjud to'siqlarni olib tashlash va standartlarni yaqinlashtirish, elektron savdo maydonchalarini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun sa'y-harakatlarimizni birlashtirish muhim.

Biznes sohasidagi muloqotlar uchun samarali maydonni ishga tushirish maqsadida, barcha manfaaddor sheriklarimizni jalb etgan holda, har yili “SHHT Invest” investitsiya forumini o'tkazishni taklif etaman. Birinchi forumni kelgusi yili O'zbekistonda o'tkazishga tayyormiz.

To'rtinchi. Mintaqamizni global yo'laklar bilan ishonchli bog'lashni ta'minlaydigan samarali transport yo'nalishlarini yaratish biz uchun hayotiy muhim masaladir.

Shu borada amalga oshirilayotgan “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li qurilishi loyihasi alohida ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu yo'nalishning Transafg'on yo'lagi bilan bog'lanishi SHHT makonida yagona transport tarmog'ini shakllantirish imkonini beradi.

Beshinchi. SHHT mamlakatlari sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazalari, robototexnika, biomuhandislik, muqobil energetika kabi ilg'or yo'nalishlarda katta sakrashni ta'minlashga qodir bo'lgan ulkan ilmiy-texnik salohiyatga ega.

Yangi g'oyalarni generatsiya qilish, ilg'or tashabbuslarni ishlab chiqish va texnologiyalar transferi uchun SHHT innovatsion-texnologik xabarlar tarmog'ini yaratishni amaliy qadam sifatida taklif etamiz.

Oltinchi. Madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni kengaytirish umumiy manfaatlarimizga javob beradi va do'st xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

“SHHT oilasi” madaniy rang-barangligi va boy qadriyatlarini ilgari surishga ko'maklashish bilan shug'ullanadigan Buyuk ipak yo'li madaniy muloqotini ta'sis etishni taklif qilaman.

Shu yilning kuzida UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o'tadigan asosiy tadbirlari mamlakatlarimizning noyob tarixiy merosini namoyish etish uchun muhim maydon bo'lishi mumkin.

Barcha sheriklarimizni katta mamnuniyat bilan ushbu muhim madaniy voqealarda faol ishtirok etishga taklif etaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Ishonchim komil, “SHHT plyus” formatidagi ushbu sammitning sarmahsul natijalari barqarorlikni yanada mustahkamlash, ko'pqirrali sheriklikni kengaytirish, barcha mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.



O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida ochiqchilik va ko'p tomonlama hamkorlik ruhiga to'liq javob beradigan “SHHT plyus” formati ishonchli muloqot uchun tobora muhim maydonga aylanib borayotganini ta'kidladi.

Bu galgi sammit XX asrning eng katta fojiasi — Ikkinchi jahon urushi tugaganining 80 yilligida o'tayotgani ramziy ma'noga ega ekan ta'kidlandi.

O'zbekiston yetakchisi qarama-qarshilik ko'payib borayotganidan xavotir bildirib, nizolarga barham berish, ishonchni tiklash, tinch-totuv yashash va xalqaro huquq normalarini hurmat qilishga chaqirdi.

Shu ma'noda, Xitoy Raisi Si Zinpin ilgari surgan Global boshqaruv bo'yicha tashabbusini qo'llab-quvvatlad.

O'zbekiston Prezidenti G'azo sektoridagi vaziyat yana keskinlashayotgani va gumanitar ahvol yomonlashayotgani qayd etib, Falastin — Isroil muammosini “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida adolati hal etishgina Yaqin Sharqdagi mojaroni to'xtatishi mumkinligini ta'kidladi.

SHHT doirasidagi sheriklik va amaliy hamkorlik uchun ulkan salohiyat mavjudligini ta'kidlab, davlatimiz rahbari ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb vazifalariga to'xtaldi.

mumkin emas, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Shu munosabat bilan ushbu mamlakat bilan hamkorlik qilish va uni SHHT loyihalariga jalb qilish bo'yicha pragmatik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari SHHT doirasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni tubdan kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida qayd etdi.

To'siqlarni bartaraf etish va standartlarni yaqinlashtirish, elektron savdo maydonchalarini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish muhimligi qayd etildi.

Biznes muloqot uchun samarali platformani ishga tushirish maqsadida har yili “SHHT Invest” investitsiya forumini o'tkazish va uning birinchi yig'ilishini kelgusi yilda O'zbekistonda tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Mintaqaviy transport integratsiyasi va o'zaro bog'liqlik haqida so'z yuritilar ekan, mintaqani global yo'laklar bilan ishonchli bog'lashni ta'minlaydigan samarali transport yo'nalishlarini yaratish Markaziy Osiyo uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega ekan ta'kidlandi.

“Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'lining qurilishi va kelajakda Transafg'on yo'lagi bilan bog'lanishi SHHT makonida yagona transport tarmog'ini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi ilmfan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohalarida sheriklikni faol ilgari surish muhimligini qayd etdi.

— SHHT mamlakatlari sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazalari, robototexnika, biomuhandislik, muqobil energetika kabi ilg'or yo'nalishlarda katta sakrashni ta'minlashga qodir bo'lgan ulkan ilmiy-texnik salohiyatga ega, — dedi Prezidentimiz.

Yangi g'oyalarni ilgari surish va ilg'or yechimlarni ishlab chiqish uchun SHHTning innovatsion-texnologik xabarlar tarmog'ini yaratish amaliy qadam sifatida taklif etildi.

“Madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni kengaytirish maqsadida O'zbekiston rahbari “SHHT oilasi”ning madaniy rang-barangligi va qadriyatlarini ilgari surishga ko'maklashishga qaratilgan Buyuk ipak yo'li madaniy muloqotini ta'sis etish tashabbusini ilgari surdi. Ishtirokchi mamlakatlar delegatsiyalarini Samarqandda bo'lib o'tadigan UNESCO Bosh konferensiyasi tadbirlarida faol ishtirok etishga taklif etdi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida “SHHT plyus” formatidagi ushbu sammitning samarali natijalari barqarorlikni yanada mustahkamlash, ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish va barcha mamlakatlarimizning izchil taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

SHHT Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishi va “SHHT plyus” sammiti doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagyn Xurelsux, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish, MDH Ijroiya qo'mitasi bosh kotibi Sergey Lebedev va boshqa delegatsiyalar rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazdi.

Tyanszin shahridagi tadbirlar yakunlangach, davlatimiz rahbari Pekin shahriga keldi.

O‘ZBEKISTON – XITOIY: YANGI IMKONIYATLAR YO‘LIDAGI SALOHİYATLAR SINERGIYASI

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Xitoy yangi davlatni birinchilardan bo‘lib tan oldi. 1992-yil 2-yanvarda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi va ushbu sana mamlakatlararo muloqotning izchil rivojlanishi yo‘lida qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi.

O‘ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. 1991-yildan buyon ikki davlat rahbarlari 25 marta oliy darajadagi sammit o‘tkazdi. O‘zbekiston — Xitoy o‘rtasida 2012-yil 6-iyunda strategik sheriklik, 2016-yil 22-iyunda keng qamrovli strategik sheriklik o‘rnatildi, 2022-yil 15-sentabrda yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik va nihoyat, 2-yanvarda har qanday sharoitda keng qamrovli strategik hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Bu dinamika nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi ishonchning yuksakligini, balki tashqi siyosiy muhitda mustaqil hamkorlikning uzoq muddatli xarakterini ham ko‘rsatadi.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida iliq, do‘stona va ishonchli munosabatlar faol hamkorlik, konstruktiv muloqot va erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil yanvar oyida Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifi samarali uchrashuvlar va kelishuvlarga boy tarzda o‘tdi. Muzokaralar yakunlari bo‘yicha ikki davlat rahbarlari Qo‘shma bayonotni qabul qildilar va ikki tomonlama mustahkam hujjatlar to‘plamini imzoladilar. Ushbu tashrif doirasida Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syan va Umumxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo‘mitasi raisi Chjao Leszi bilan ham uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, CNPC va SITIC korporatsiyalari, Xitoy eksport-import banki rahbarlari bilan muzokaralar olib borildi. Shuningdek, kun tartibidan Guangdong provinsiyasi partiya qo‘mitasi kotibi Xuan Kunmin, yirik biznes vakillari bilan uchrashuvlar, shuningdek, “Ipak yo‘li” jamg‘armasi, “SANY” va “CSG” kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi, muloqotlar chog‘ida Jizzax viloyatida “BYD” rusumli gibrid va elektr avtomobillarini birgalikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish masalalari ham o‘rin oldi. Toshkent va Pekin xalqaro maydonda bir-birini, jumladan, global muammolarni hal etish tashabbuslarini izchil qo‘llab-quvvatlab, milliy ustuvorlik va manfaatlarni hisobga olgan holda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida faol hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston bilan Xitoyning xalqaro maydondagi diplomatik sherikligi ko‘p tomonlama, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ham faol rivojlanmoqda.

Bugungi kunda rasmiy Toshkent va Pekin mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga birgalikda yordam berib, ushbu tuzilmaning asosiy ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

SHHTning navbatdagi sammitida tashkilotga a‘zo davlatlar rahbarlari o‘rtasida mintaqaviy kun tartibi va hamkorlikni chuqurlashtirishning dolzarb masalalari muhokama qilinmoqda.

Ikki davlat rahbarlarining ishonchli muloqoti oliy va boshqa darajadagi munosabatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Bunga parlamentlararo hamkorlikning rivojlanish dinamikasini misol qilib keltirish mumkin. 2017-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi va Xalq vakillari Umumxitoy Majlisi Doimiy qo‘mitasi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh tuzilgani bu boradagi muhim qadam bo‘ldi. Shundan buyon mazkur mexanizm tajriba almashish va qo‘shma tashabbuslarni muvofiqlashtirish uchun samarali platformaga aylandi. Mazkur format doirasida muntazam ravishda onlayn uchrashuvlar o‘tkazilib, ikki mamlakat parlament delegatsiyalari bir-birlari tomonidan tashkil etilgan xalqaro forumlarda ishtirok etib, o‘zaro tashriflarni amalga oshirmoqda.

Xalq vakillari Umumxitoy Majlisi Doimiy qo‘mitasi raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiya 2024-yil 6-9-iyul kunlari O‘zbekistonga tashrifi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan edi. Ushbu tashrif nafaqat parlamentlararo muloqotning yuqori dinamikasini ta‘minladi, balki umuman siyosiy hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qildi.

Shu bilan birga, ikki tomonlama munosabatlarda ikki davlat tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi faol muloqot muhim o‘rin tutadi. Tashqi ishlar vazirliklari darajasidagi muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, kelgusidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olish, shuningdek, xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha pozitsiyalarni kelishish imkonini beradi. Bu mexanizm, shuningdek, o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi va O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarning strategik darajada izchil rivojlanishini rag‘batlantiradi. Bugungi kunga qadar siyosiy maslahatlashuvlarning 19 davrasi o‘tkazildi, ularning so‘nggisi 2025-yilning may oyida Pekinda bo‘lib o‘tdi.



“Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga navbatdagi rasmiy tashrifi strategik sheriklikni chuqurlashtirish, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, gumanitar aloqalarni mustahkamlash, XXI asrda hamkorlikning yanada keng istiqbollarini ochish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lishi shubhasiz.

Bundan tashqari, 2023-yil 21-noyabr kuni Pekinda ikki tomonlama diplomatik hamkorlikning yangi formati ishga tushirildi. Ya‘ni O‘zbekiston va Xitoy tashqi ishlar vazirlari o‘rtasida birinchi strategik muloqot bo‘lib o‘tdi.

Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi hamkorlik “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati doirasida ham konstruktiv ruhda rivojlanmoqda. 2020-yildan buyon ushbu formatda tashqi ishlar vazirliklari rahbarlarining olita uchrashuvi bo‘lib o‘tdi, ularning oxirigisi 2025-yil 26-aprel kuni Olmaota shahrida o‘tkazildi.

2024-yilning noyabr-dekabr oylarida Chendu shahrida O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Xitoy tashqi ishlar vaziri Van I bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida o‘zaro viza talablaridan ozod qilish to‘g‘risida hukumatlararo bitim imzolandi.

2025-yilning 15-16-iyul kunlari SHHT Tashqi ishlar vazirlari kengashi majlisidagi ishtiroki doirasida O‘zbekiston TIV rahbari Pekin shahrida Xitoy Raisi Si Szinpin tomonidan qabul qilindi va Tyanszin shahrida tashqi ishlar vaziri Van I bilan muzokaralar o‘tkazdi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘z iqtisodiyotlarining bir-birini to‘ldiruvchi salohiyatiga, o‘shinni jadallashtirish, kambag‘allikni qisqartirish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan har ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalariga tayanib, savdo-iqtisodiy hamkorlikni ikki tomonlama

munosabatlarning asosiy yo‘nalishi deb biladi.

Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning yetakchi savdo va investitsiyaviy sheriklaridan biridir. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi muntasil oshib bormoqda. 2017-2024-yillarda tovar ayirboshlash ko‘rsatkichi 2,8 barobaridan ortiq o‘sib, 14 milliard dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizda Xitoy investitsiyasi ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 4 mingdan oshdi va joriy yil boshidan buyon 800 dan ortiq shunday korxonalar tashkil etildi.

Hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Xitoy hukumatlararo qo‘mitasi faoliyati ikki tomonlama iqtisodiy sheriklikni chuqurlashtirish va kengaytirishga samarali xizmat qilmoqda. 2023-yilda mazkur qo‘mita tarkibida ijtimoiy sohadagi ikki tomonlama hamkorlikning yana bir vositasi sifatida — kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kichik qo‘mita tashkil etildi. U kambag‘allikni qisqartirish va barqaror tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni muhokama qilish va muvofiqlashtirish uchun platforma bo‘lib, Xitoy tajribasini almashish va O‘zbekiston hududlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishga alohida e‘tibor qaratadi.

O‘zbekiston va Xitoy hududlararo hamkorligi ham yangi sur‘at kasb etmoqda. 2024-yil 2-yanvar kuni Urumchi shahrida O‘zbekiston va Xitoyning birinchi hududlararo forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda ikki mamlakat ishbiarmon doiralari, hududiy hokimiyat

va sanoat tashkilotlarining 1200 dan ortiq vakili ishtirok etdi. Tadbir doirasida V2V va G2B shaklidagi muzokaralar, shuningdek, O‘zbekiston eksportchilarining mahsulotlari namoyish etilgan “Made in Uzbekistan” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Forum yakunlari bo‘yicha hududlar o‘rtasida 27 ga yaqin hujjat imzolandi hamda ko‘rgazma 30 ga yaqin shartnoma va bitimlar tuzish uchun muhim maydonga aylandi.

Ikkinchi hududlararo forum 2025-yil 1-2-iyun kunlari Samarqanddagi “Silk Road Samarqand” xalqaro sayyohlik majmuasida bo‘lib o‘tdi. Unda har ikki tomondan ishbiarmon doiralari, viloyat va markaziy hokimiyat organlari, fan va ta‘lim sohalarining 2,8 mingdan ortiq vakili ishtirok etdi.

Bunday forumlar xitoylik investorlarning respublikamiz hududlaridagi erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlariga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Natijada Sirdaryo viloyati Xitoyning ilg‘or innovatsiyalar hududiga aylandi — bu yerda Xitoy modeli asosida innovatsion texnoparklar tashkil etilib, ular soddallashtirilgan bojxona rejimiga ega erkin iqtisodiy zonalar maqomini oladi. Ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun Xitoy Ipak yo‘li jamg‘armasi va boshqa institutlar bilan hamkorlikda investitsiya hajmi 1 milliard dollargacha bo‘lgan O‘zbekiston — Xitoy investitsiya jamg‘armasi tashkil etilmogda.

Shuningdek, Chirchiq shahridagi sanoat parkida Xitoy kompaniyalari ishtirokida “Ikki hudud — bir bog‘” maxsus sanoat zonasi yaratilyapti. Bu yerda birinchi ishlab chiqarish quvvati 2026-yilda ishga tushishi kutilmoqda. Umuman olganda, 2017-2024-yillarda O‘zbekistonda o‘zlashtirilgan Xitoy investitsiyalarining umumiy hajmi 24,6 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil so‘ngiga qadar 15 milliard dollardan ortiq sarmoyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik bugungi kunda tarixiy rishtalar va Ipak yo‘li merosining mustahkam poydevori asosida rivojlanib bormoqda. Bu hamkorlik ta‘lim, san‘at, turizm va gumanitar almashinuv kabi keng yo‘nalishlarni qamrab olgan bo‘lib, ular ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlik va do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda xitoy tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqish juda yuqori. Ularni o‘rganish va ommalashtirishda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Samarqand davlat chet tillari instituti muhim o‘rin tutadi. Ushbu ta‘lim muassasalarida Markaziy Osiyodagi ilk Konfutsiy institutlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘z navbatida, Xitoyda ham o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib boryapti. O‘zbekistonda ko‘plab xitoylik

talabalar tahsil olmoqda, Xitoy universitetlarida esa o‘zbek tili va adabiyotini o‘qish kurslari ochilgan. Markaziy Millatlar universiteti (Pekin) va Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetida o‘zbek tili kafedralari faoliyat ko‘rsatyapti.

Madaniyatlararo muloqot ham ikki mamlakatning madaniyat va san‘at namoyondalari ishtirokidagi ko‘plab ko‘rgazmalar, konsertlar, festivallar va boshqa tadbirlar bilan boyib bormoqda.

2022-yil may oyida Sian shahrida 100 dan ortiq madaniy tadbirlar o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo — Xitoy” birinchi sammiti doirasida “Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari madaniyati va san‘ati yili” rasman e‘lon qilindi.

2023-yil sentabr oyida Xanchjou shahridagi Xitoy milliy ipak muzeyida “Rangli Osiyo: Osiyo liboslari ko‘rgazmasi” doirasida “O‘zbekiston kechasi” tadbiri o‘tkazildi.

Joriy yilning avgust oyida Xitoy Milliy muzeyida ochilgan SHHTga a‘zo davlatlar milliy muzeylari kolleksiyasi ko‘rgazmasida O‘zbekistonning eng ko‘p eksponatlar bilan ishtirok etishi madaniyatlararo almashinuvdagi yana bir muhim voqea bo‘ldi.

Madaniy hamkorlikning muhim jihati turizmni rivojlantirishdir. Joriy yil may oyida Pekin shahrida mamlakatimizning Xitoydagi elchixonasi tomonidan O‘zbekistonning turizm va madaniy salohiyatiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir Xitoy fuqarolari uchun O‘zbekistonga 30 kungacha bo‘lgan muddatga vizasiz rejim joriy etilishi munosabati bilan o‘tkazildi. Bu qadam madaniyatlararo muloqotni faollashtirish, sayyohlar almashinuvini oshirish, ishbiarmonlik aloqalarini kengaytirish uchun muhim turki bo‘ldi.

Albatta, O‘zbekiston — Xitoy keng qamrovli hamkorligining barcha yo‘nalishlari va yutuqlarini, ayniqsa, keyingi yillardagi yaqin sheriklik munosabatlari bir maqolada batafsil tahlil qilish imkonsiz. Shunga qaramay, keltirilgan ishonchli ma‘lumotlar ikki tomonlama munosabatlar misli ko‘rilmagan ishonch va o‘zaro anglashuv darajasiga ko‘tarilganidan, tomonlar ularni bundan keyin ham takomillashtirish va mustahkamlashga intilayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston va Xitoy xalqlari an‘anaviy tarzda muloqot va hamkorlikka ochiq bo‘lib, bu yangi qo‘shma tashabbuslar uchun mustahkam zamin yaratayotir.

Muxtasar aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga navbatdagi rasmiy tashrifi strategik sheriklikni chuqurlashtirish, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, gumanitar aloqalarni mustahkamlash, XXI asrda hamkorlikning yanada keng istiqbollarini ochish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lishi shubhasiz.

“Dunyo” AA



Rasul JALILOV, Bekobod shahri favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta yo‘riqchi-qutqaruvchisi, “Jasorat” medali sohibi

Bir voqea esimda: joriy yil boshlarida Bekobod shahrida sodir bo‘lgan yong‘in vaqtida bir necha kishini xavfli hududdan evakuatsiya qilishga to‘g‘ri keldi. Qarshimizdagi kuchli alanga ortida hayoti xavf ostida qolgan odamlar bor edi. Vaqtini boy bermay harakat qilib, favqulodda holatni qurbonlarsiz bartaraf etdik.

Odamlarga yordam berish, ularning dardini o‘zimmiki deb bilish — hayotiy shiorim. Bunga oilda, maktabda olgan ta‘lim-tarbiyam asos bo‘lgan desam, mublag‘a bo‘lmaydi. Voyaga yetgach, orzu-niyatlarni ro‘yobga chiqarish fursati yetganda, hech ikkilanmay, favqulodda vaziyatlar yo‘nalishini tanladim. Bu soha esa fidoyilik, jasorat va doimiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bois, o‘z ustimda ishlashdan, ham jismonan, ham ma‘nan chiniqishdan to‘xtamadim.

QUTQARUVCHILIK — ODAMLAR HAYOTI UCHUN KURASHISH DEMAK

Hayot davom etar ekan, bunday favqulodda hodisalar uchrab turadi. Shunday vaziyatda inson hayotini asrash, aholi mol-mulkiga ziyon yetishining oldini olish qutqaruvchilardan katta mahorat, fidoyilik talab etadi.

“Bugungi islohotlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilayotgan e‘tibor bu borada yutuqlarimiz omili bo‘layotir. Hozir tizimimizda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilyapti, mutaxassislar eng ilg‘or davlatlar tajribasini chuqur o‘rganmoqda. Tabiiyki, bu imkoniyatlar xalqimiz farovonligi va turmushimiz obodligiga xizmat qilmoqda.

Men, avvalo, xalqimizga nafim tegayotganidan behad mamnunman. Sohadagi kamtarona mehnatim davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo‘lgani esa dilimdagi faxr hissini yanada yuksaltirdi.

Menga berilgan “Jasorat” medalini nafaqat shaxsiy sharaf ramzi, balki butun hamkasblarimning mehnatiga berilgan yuksak baho sifatida qabul qilaman. Bu yanada ulkan mas‘uliyat yuklaydi, zimmandagi burchni teran anglash va Vatanimizga sodiq xizmat qilishga da‘vat etadi.

Xalq xizmatchisi sifatida yoshlarga aytar gapim shuki, Vatanni seving, fidoyi bo‘ling va har qanday sohada adolat va halollik bilan ish tuting. Qanday kasbda bo‘lmang, insonlarga manfaat yetkazishni maqsad qilib. Bu xayrli ishlaringiz bir kuni, albatta, o‘z mevasini beradi. El-yurt ardog‘i va e‘zoziga musharraf bo‘lasiz.

ARXIV SOHASIDAGI ISHLARIM E‘TIROF ETILDI

Yamila BAYNOVA, Xorazm viloyati davlat arxivi bosh arxivchisi, “Sodiq xizmatlari uchun” medali sohibi

Xorazm viloyatida arxiv sohasida ish boshlaganimga 55 yil bo‘ldi. Arxiv ishi jamiyat hayotining barcha sohasini qamrab oladi. Bu yerda hamlangan ma‘lumotlar o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘lashda muhim vositadir.



Viloyat davlat arxivi ham yurtimiz tarixiy merosini jamlash, saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishda ana shunday muhim ilmiy-ma‘naviy maskan vazifasini o‘taydi. 1926-yili tashkil etilgan ushbu muassasa vohadagi ilk davlat arxividir. Dastlabki yillarda u turli binolarda faoliyat yuritgan. 1987-yildan Urganch shahridagi maxsus binoda ishini davom ettirmoqda.

“Bu yerda viloyat tarixiga oid noyob hujjatlar, jumladan, 1911-yildan boshlanuvchi vaqf, boshqaruv va shaxsiy tarkib, shaxsiy kelib chiqish hujjatlari hamda minglab fotomateriallar saqlanmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda arxivlar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ham muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Sohaga yangi texnologiyalar keng joriy etilyapti. 207 mingdan ziyod hujjat hisobga olindi.

Shundan 14 mingdan ortiq saqlov birlik alohida qimmatli hujjatlar sifatida qayd etilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning yuzlab so‘rovi qanoatlantirildi, arxiv hujjatlari holati muntazam tekshirib borilmoqda. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchilar uchun zarur arxiv hujjatlarini tezkor topib berishda amaliy yordam ko‘rsatilmoqda.

Arxiv sohasidagi ishlarim e‘tirof etilib, Vatanimizning yuksak mukofotiga loyiq topilganindan behad mamnunman. Menga ko‘rsatilgan bu yuksak e‘tibor va ishonch uchun Prezidentimiz va xalqimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Mazkur mukofotni nafaqat mening mehnatim, balki butun respublikamiz arxivchilari jamoasining fidokorona xizmatiga berilgan yuksak baho deb bilaman. Kelgusida ham arxiv hujjatlarini asrab-avaylash, tarixiy merosimizni avlodlarga yetkazish yo‘lida bor kuch-g‘ayratim bilan xizmat qilaman.

2025-yil bandlikni taʼminlash va kambagʻallikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil boʻladi.

Shavkat Mirziyoyev,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti



Mahallabay ishlashda
yangi bosqich

Mahalla azaldan xalqimiz uchun mehr-muruvvat, xayr-saxovat markazi boʻlib kelgan. Keyingi 8-9 yilda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng koʻlamli va aniq manzilli islohotlar natijasida mahalla bugunga kelib tadbirkorlik, biznes gʻoyalari va loyihalar markaziga aylandi.

Aynan shu davrda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan kambagʻallikni qisqartirish va ishsizlikni bartaraf etishning asosiy vositasi sifatida mahallabay ishlash tizimiga asos solindi. Aholini, ayniqsa, yoshlar va ayollarni kasb-hunarga oʻqitish, oila xoʻjaliklarida biznes tashkil etishiga koʻmaklashish, ehtiyojmand fuqarolar bilan manzilli ishlash, bir soʻz bilan aytganda, xalqni rozi qilish bu tizimning pirovard maqsadidir.

Prezidentimiz mamlakatimiz mustaqilligining oʻttiz toʻrt yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida mahallabay ishlash tizimining maqsadi va muhim ahamiyati haqida toʻxtalib, jumladan, shunday dedilar: “Yurtimiz aholisi yiliga oʻrtacha 700-800 ming kishiga koʻpaymoqda. Mehnat bozoriga har yili 500-600 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda. Buncha odamni oʻqitish, kasb-hunarli qilish, ularga ish topib berish oʻz-oʻzidan boʻlmaydi, albatta. Buning uchun muntazam ishlaydigan tizim, kafolati investitsiya va infratuzilma kerak.

Shuni oldindan chuqur oʻylab, biz bu yoʻnalishda aniq dasturlarni qabul qildik. Biz mahallagacha tushib, oʻzini oʻzi band qilgan tadbirkordan tortib, yirik biznesgacha — barchasini alohida yondashuv asosida koʻllab-quvvatlash boʻyicha tizim barpo etdik”.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida 2026-yilga qadar kambagʻallikni 2022-yilga nisbatan 2 barobar, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish koʻzda tutilgan. Aytish joizki, kambagʻallikka tushish xavfi mavjud 4,5 million kishi daromadini oshirish kabi ustuvor maqsadlarga erishishda aynan mahallabay ishlash tizimi muhim oʻrin tutadi.

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini taʼminlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida bu boradagi yangi imkoniyatlar va rejalar muhokama qilindi. Xususan, oxirgi 6-yilda oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 750 ming kishi kreditini vaqtida qaytarib, daromadli biznesga ega boʻlgani va ulardan 58 mingi yangi korxona ochgani qayd etilib, respublika tijorat banklari zimmasiga mana shunday sinovdan oʻtgan mijozlarni qoʻllab-quvvatlash, kichik va oʻrta biznes darajasiga olib chiqish vazifasi yuklatildi.



“MAHALLA BANKIRI” —
MAHALLADAGI BUNYODKOR KUCH

Shuningdek, 60 ta ilgʻor shahar hamda tuman ishsizlik va kambagʻallikdan xoli boʻlish imkoniyatiga ega ekani, buning uchun 2025-yilda ulardagi 2 million kishini band qilib, 417 ming oilani kambagʻallikdan olib chiqish zarurligi taʼkidlandi. Hokimliklar bilan banklarning mahallalarda muvofiq ishlash tizimi koʻrsatib oʻtildi. Bunda tuman hokimlari loyihani joy va infratuzilma bilan taʼminlash majburiyatini olishi, banklar esa tadbirkorlar loyihalariga koʻmaklashib, muammosini hal etishi, ishsizlarni biznesga jalb qilishi belgilandi. Shu maqsadda hududlarda mahalla bankirlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish taklifi bildirildi.

Mazkur yigʻilishda koʻrib chiqilgan masalalar chuqur tahlil va aniq hisob-kitoblarga asoslangan edi. Shuning barobarida qoʻyilgan dolzarb vazifalar mahallabay ishlash tizimida yangi bosqich boshlanayotganini anglatardi. Bu bosqich kambagʻallikni qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etishga doir yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etishni taqozo etardi.

Mahalla bankirlari instituti aynan mana shu omil samarasi oʻlaroq, mahalla salohiyatini yuzaga chiqarishda yangi bunyodkor kuch sifatida maydonga keldi.

Mahalla bankiri kim?

Mahallada tadbirkorlik qilish imkoniyati yildan yilga kengayib bormoqda. “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash”, “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Mahalla loyihasi”, “Biznesga birinchi qadam”, tadbirkor ayollarni qoʻllab-quvvatlash “Hamroh” dasturi va boshqa qator dasturlar qabul qilinishi bilan bu yoʻnalishda yangi imkoniyatlar paydo boʻldi. Bu dasturlarning har birida tadbirkorlik faoliyati uchun oʻziga xos qulayliklar va alohida imtiyozlar belgilangan.

Tan olishimiz kerak, bu imkoniyatlardan aholining barcha qatlami ham birdек xabardor emas. Odamlar orasida tadbirkorlik gʻoyalari va davlat dasturlarida koʻzda tutilgan qulayliklarni targʻib qilish holati bugungi kun talablariga toʻla javob bermaydi.

Ilgari mahalla tizimida hududdagi biznes imkoniyatlarini oʻrganadigan, odamlarning gʻoyalari va qobiliyatini loyihalarga aylantiradigan masʼul shaxs yoʻq edi.



Bundan tashqari, tijorat banklarining ishlash uslublari eskicha — mijozga yoʻnalmagan edi. Bank xodimlari asosan oʻz ofislarida mijozlar bilan ishlardi. Aksariyat hollarda ular faqat murojaat qilgan tadbirkorlarning loyihalarini koʻrib chiqar va moliylashtirardi. Chunki tijorat banklarining tashkiliy tuzilmalarida uyma-uy yurib, xonadonbay ishlash, tadbirkorlik qilish istagida boʻlgan fuqarolarni aniqlab, topib, bankning yangi mijoziga aylantiradigan mutaxassislar avval boʻlmagan.

Biror-bir gʻoyani biznesga aylantirish uchun fuqaro, albatta, issiqda yoki sovudga yoʻl bosib, tuman markazidagi bank idorasiga borishi, tegishli mutaxassisga murojaat qilishi lozim edi. Oʻsha vaqtlarda bunga hamma ham hafsala qilmasdi. Bankka borgan fuqaroning masalasi doim ham tez bitmasdi — sansalorlik bor edi. Mazkur murojaat kunlami, baʼzida oylarni talab etardi. Aholiga koʻpincha bu malol kelar, norozi boʻlardi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan vujudga kelgan mahalla bankirlari aynan mana shu boʻshliqlarni toʻldirdi. Bu bilan, birinchidan, loyiha tijorat banklarini xalqqa yanada yaqinlashtirdi. Boshqacha aytganda, banklar oʻz ofisidan tashqariga chiqdi.

Ikkinchidan, aholining tijorat banklariga munosabati keskin oʻzgardi. Fuqarolarda banklarga ishonch oshdi, aholi va banklar oʻrtasidagi jarlik yoʻqoldi.

► aholi va tadbirkorlarning takliflari hamda koʻtarilgan muammolarni bank filialiga yetkazadi.

Qisqasi, endi mahallada tadbirkorlik rivojiga masʼul, fuqarolar bilan birma-bir gaplashib, ularning loyihasini gʻoyaga, biznes rejaga aylantiruvchi, kerak boʻlsa, yelkama-yelka turib uni amalga oshiruvchi vakil bor. U — mahalla bankiri!

Yuzaga chiqayotgan yashirin
salohiyat

Yangi tizim joriy etilishi ortidan mahalladagi avval maʼlum boʻlmagan yashirin imkoniyatlar yuzaga chiqib boshladi. Xususan, tadbirkorlikka ishtiyوقي bor, lekin tavakkalchilikdan va muvaffaqiyatsizlikdan choʻchib oʻz biznesini boshlay olmayotgan fuqarolar harakatga keldi. Mahalla bankirlari timsolida ular tom maʼnoda oʻziga yaqin koʻmakchini his etdi, oʻziga ishonchi ortdi.

Oʻtgan qisqa davrda tijorat banklari faoliyatida mijozlar bilan ishlashda foydalanilmayotgan katta salohiyat mavjudligi ham koʻrinib qoldi. Banklar aholi bilan butunlay yangicha ishlash boshladi. Natijada mahallada biznesni koʻllab-quvvatlashning samarali mexanizmlari tarkib topdi.

“Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki Oʻzbekistondagi yetakchi moliya muassasalaridan biri sifatida yangi tizimni joriy etish va uning amaliy samalarini yuzaga chiqarishda faol ishtirok etmoqda. Hozir respublika boʻyicha mazkur banka biriktirilgan 614 ta mahallada 232 mahalla bankiri va 614 yordamchi agent ishlamoqda.

Joriy yil davomida mahallalarda 255 ming 117 kishini daromadli mehnat bilan band qilish, shundan 106 ming 523 nafarini doimiy ishga joylashtirish va 148 ming 594 nafarini tadbirkorlikka jalb etish belgilandi. Bunda kichik va oʻrta biznesga 5 trillion 737 milliard soʻm va dasturlar doirasida 1 trillion 300 milliard 300 million soʻm hamda “Mahalla loyihasi” dasturlari doirasida 100 million dollar miqdorida kredit ajratilishi koʻzda tutildi. Bandlik, kambagʻallikdan chiqarish va tadbirkorlikka jalb qilish doirasida 2025-yilning yanvar-iyul oylarida “Biznesni rivojlantirish banki” koʻmagida 162 ming 901 kishi daromadli mehnat bilan taʼminlandi. Bu boradagi reja koʻrsatkichlari 115 foiz bajarildi.

Mahalla bankiri:

- aholiga biznesni yoʻlga qoʻyishni, mahsulot va xizmatlarini sotishni, kredit olish va qaytarishga doir moliyaviy tartiblarni oʻrgatadi, loyihalarga hamrohlik qiladi;
- aholi orasidan oʻziga biriktirilgan mahallalarda xonadonlarni yaxshi biladigan yordamchi-agentlarni yollab, fuqarolarni bank xizmatlariga qiziqitirish va loyiha takliflarini topish ishlarini tashkil qiladi;
- tadbirkorlik subyektlarining yangi loyihalarini amalga oshirishda ishbilarmonlar bilan birga biznes reja ishlab chiqish va moliylashtirishda amaliy yordam beradi;
- “oʻzini oʻzi band qilgan shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor — kichik biznes — oʻrta biznes — yirik biznes” janrlarining har bir bosqichida moliyaviy xizmat turlarini taklif etib boradi;
- mahallaning barcha statistik koʻrsatkichlarini tahlil qilib, yangi va mavjud tadbirkorlarning salohiyatini oshirish, mahallada tadbirkorlikka qiziqishi yuqori aholiga biznes tashabbuslarini tatbiq etishda maslahat va moliyaviy koʻmak beradi;

Muvaffaqiyat hikoyalari

Karmana tumanidagi “Argʻum” MFYda yashovchi Farrux Sharipov hikoyasi:
— Sartaroshlikni boshlaganimga 17 yil boʻldi. Lekin oʻtgan yillarda koʻp qiyinchilikka duch keldim. Ish joyimni bir necha marta almashtirishimga toʻgʻri keldi. Oxiri uyimdan kichikroq sartaroshxona ochdim. Keyingi 3 yilda shu yerda ishladim. Lekin bu yer ham bizga torlik qildi. Sababi shogirdlarim ham ancha tajribali boʻlib, ularga ham alohida sharoit qilib berishim kerak edi. Shogirdlar bilan kelishib, aholiga qulay joy topib, sartaroshxona ochishni niyat qildik. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bizga mahalla bankiri yordam berdi.

Yangi ishonamanizda men va olti shogirdim shu kasb ortidan oila boqypmiz. Shogirdlarimning aksariyati ishsiz yoshlar edi. Bugun ular qoʻlida hunari bor usta-sartarosh.

Endi faoliyatimni kengaytirish haqida oʻylayapman. Tarmoqli biznes qilmoqchiman. Avval Navoiy shahri boʻylab yangi tarmoqlarni ochmoqchiman, keyinchalik boshqa viloyatlarga ham kirib boramiz. Men mahalla bankiri bilan ishlab ular bizni qoʻllab-quvvatlash uchun har tomonlama yordam berishga tayyor ekaniga amin boʻldim. Shuning uchun ham men bu gaplarni ishonch bilan aytapman.

Mahalla bankiri barcha jarayonda, loyiha yaratish, biznes reja tuzish yoki boshqa shunga oʻxshash hujjatlarini toʻplab, kredit olib faoliyat boshlashimizgacha yaqindan yordam berdi. Kelgusida katta loyihalarimizni ham u bilan bamaslahat amalga oshirishimizga ishonchim komil.

Konimex tumani “Birlik” MFYda yashovchi Balxiya Poʻlatova hikoyasi:
— Chuchvara biznesi ortidan olti mahalladoshim ishl boʻldi. Uymizga mahalla bankiri kelmaguncha uyda oʻtirib pul topish mumkinligi haqida oʻylab ham koʻrmagan edim.

“Biznesni rivojlantirish banki” xodimi xonadonimizdagi sharoitlarni oʻrganib, roʻzgʻorga daromad keltiradigan yarim tayyor xamirli oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlab sotish taklifini berdi. Bu nafaqat men, balki kundalik yumushlar bilan band boʻlgan har bir uy bekasi uchun juda qulay ekan. Mahalla bankiri va yordamchi agentning oʻzi yelib-yugurib kredit olishimda yordam berdi.

Kredit mablagʻi hisobidan muzlatkich va sovitkich oldim. Yaqinda patir uchun maxsus pech sotib oldik. Bu jihozlarni ham mahalla bankiri arzon va kafolatli joydan topib berdi. Qolaversa, u mahalliy doʻkondorlar bilan gaplashib mahsulotimga xaridorlar ham topib beryapti. Kunda-kunora ishimizdan xabar olib turadi.

Uyda ishsiz, nima qilarimni bilmay oʻtirgan kunlarimni eslagim kelmaydi. Oʻsha vaqlar qanday edim, hozir qanday boʻldi?!

Mahalla bankiri tizimining hayotiy samarasini oʻzimda his qildim. Turmushimda juda katta oʻzgarish yuz berdi. Bu ishlarning boshida turganlarga cheksiz rahmat aytaman.

Samarqand shahridagi “Yangi hayot” MFYda yashovchi Amirjon Rahmonov hikoyasi:
— Novvoylik bilan oilaviy shugʻullanib kelimiz. Oilada toʻngʻich farzand boʻlganim uchun roʻzgʻor tebratishga otamga yordam berib keldrim. Kutilmaganda otam xastalikka chalindi. Birdan-bir daromad manbaimiz boʻlgan ushbu hunar ortidan toʻplangan pulimizni otamni davolashga sarfladik. Oilaviy biznesimiz toʻxtab qoldi, tandar ham eskirdi.

Otamning yonida yurib, uncha-muncha non yopish sirlarini oʻrganganman. Lekin menda un va boshqa kerakli mahsulotlarni sotib olishga zarur mablagʻ yoʻq edi. Shunday oʻy-xayolda yurgan kezlarim uyimizga kelgan mahalla bankiri bilan suhbatlashib, otamning kasbini davom ettirish istagi paydo boʻldi. Mahalla bankiri koʻmagi bilan 50 million soʻm kredit olib, non va patir mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qayta tikladim.

Kredit naqd pulda berilgani menga juda qoʻl keldi. Chunki novvoylik uskunalarining hammasi ham doʻkonda yoʻq fabrikada ishlab chiqarilmaydi. Ularni ustalarga buyurtma berib yasatish kerak.

Naqd olingan kredit hisobidan avval yangi tandar qurdiridik. Qolgan mablagʻga bozordan kerakli miqdorda un sotib olib, yana novvoylikni boshlab yubordik. Bunda menga onam va turmush oʻrtogʻim yordam beradi. Har kuni uch-toʻrt mahal non yopib bozorda sotib kelaman. Shu tariqa qoʻlimga pul, roʻzgʻorimizga baraka kirdi.

Kogon tumanining “Navroʻz” MFYda yashovchi Madina Amonova hikoyasi:
— Ota-bobalarim sartarosh oʻtgan. Bobom 40 yil, otam 15-20 yil ushbu kasb bilan shugʻullangan. Men ham shu kasbning boshini tutganimda ich-ichimda bir kun kelib, “Goʻzallik saloni ochaman” degan orzum bor edi. Hayotda turli qiyinchiliklarga duch keldim, lekin maqsadimdan qaytmadim. Mana, bugun oʻsha orzum ushaldi.

Shu paytgacha birovlarning qoʻlida oddiy ishchi edim, mahalla bankiri koʻmagi bilan endi oʻzim ham ish beruvchiga aylandim. Uning maslahati bilan oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida roʻyxatdan oʻtdim va imtiyozli shartlar asosida 60 million soʻm kredit oldim.

Ushbu mablagʻga “Goʻzallik saloni” ochib, oʻzimdian tashqari yana uch mahalladoshimni ish bilan taʼminladim. Hozir mahallamiz ayollariga goʻzallik va tabassum ulashypmiz. Mijozlarimiz kundan kun koʻpayib boryapti. Bank xodimlari

kengaytirish maqsadida kredit soʻrab murojaat qilgan edi. Korxonaga “Mahallada biznes” kredit mahsuloti orqali 64 million soʻmlik kredit ajratildi. Natijada tadbirkor 2 ta yangi ish oʻrni ochdi.

“Sayxunobod tajribasi” asosida bankimizga biriktirilgan mahallalarda jami 14 ming 432 ta mikroloyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan boʻlib, amalda 17 ming 231 ta mikroloyiha ajratildi. Bu saʼy-harakatlar hisobiga rejadagi 28 ming 864 nafar oʻmiga amalda 35 ming 369 kishi ishga joylashdi.

“Biznesni rivojlantirish banki” yilning oʻtgan davrida aholini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash doirasida kichik va oʻrta biznes subyektlariga 2 trillion 337 milliard soʻmlik, shuningdek, mahalla loyihasi dasturi doirasida 669 milliard 200 million soʻmlik kredit ajratdi.

Bu raqamlar davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgan yangi iqtisodiy mexanizmining amaliy natijalari, xolos. Mahalla bankirlari loyihasi aholi uchun ham, tijorat banklari uchun ham birdek manfaatli boʻlmoqda.

Xalqimizga ilhom
berayotgan gʻoya

Tadbirkorlik xalqimizning qonida bor. Bugun mana shu haqiqat yurtimizning har bir mahallasida boʻy koʻrsatmoqda. Mahallalarimiz tobora obod boʻlib, yangi tadbirkorlar va yangi loyihalarga yoʻl ochilmoqda.

Mahalla bankirlari esa loyihalarini ishlab chiqishdan boshlab mahsulotlarni sotish, eksport qilishgacha boʻlgan barcha jarayonda bosh-qosh, tashabbuskorlarning eng yaqin koʻmakchisi sifatida jonbozlik koʻrsatmoqda. Ular mahallalardagi yashirin salohiyatni yuzaga chiqarish orqali qoʻshimcha ish oʻrinlari ochishga va mavjud quvvatni kengaytirishga kamarbasta boʻlmoqda. Bu qanchadan-qancha yangi loyihalar, xaridorgir mahsulotlar, ish oʻrinlari, qoʻshimcha daromad va eksport hajmi demakdir.

“Har qanday islohot quruq raqamlarda emas, balki, eng avvalo, aholining kundalik hayotida, uning dasturxon va roʻzgʻorida oʻz aksini topishi zarur”, degan edi Prezidentimiz. Mahalla tarqatqoivi yoʻlidagi iqtisodiy islohotlar bugun xalqimizning hayot tarzi, kundalik turmushida namoyon boʻla boshladi. Mahallalarda “Bersang — yeyman, bermasang — oʻlaman” qabilidagi boqimandalik kayfiyatida va “Davlat meni boqsin” degan oʻy-fikrda yuradigan fuqarolar tobora kamayib bormoqda. Odamlarda tashabbus bilan yashash, oʻzini band va daromadli qilishga intilish hissi kuchayib bormoqda.

Eng muhimi, fuqarolar yurtimizdagi har qanday islohot “Inson qadri uchun” ekani, ular xalqimizning ertaga emas, bugun yaxshi yashashi uchun amalga oshirilayotganini tobora teranroq tushunmoqda. Bu haqiqatni anglagan inson borki, oʻz mehnati bilan oilasi, mahallasi va vatani ravnaqiga hissa qoʻshishga intilmoqda.

Prezidentimiz Mustaqilligimizning oʻttiz toʻrt yillik tantanalarda oʻtgan davrda birgina kichik va oʻrta tadbirkorlar soni 2 karra koʻpayganini, bugun ushbu tarmoqda 10 milliondan ortiq aholimiz mehnat qilib, daromad topayotganini taʼkidladi:

— Biz yil boshida 5,5 million aholi bandligini taʼminlash boʻyicha katta marra olgan edik. Sakkiz oydayoq 5 millionlik rejani uddaladik.

Eng muhimi, islohotlarimizga ishonib, shu yilning oʻzida chetda ishlayotgan 700 ming fuqaromiz yurtimizga, oʻz oilasi bagʻriga qaytdi, — dedi davlatimiz rahbari.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini taʼminlash shunchaki maqsad yoki balandparvoz gʻoya emas, balki Prezidentimiz tomonidan uzoqni koʻzlab, puxta ishlab chiqilgan siyosatning mahsulidir. Bu siyosat oʻzining kuchli gʻoyaviy asoslariga, aniq ijtimoiy-iqtisodiy dastaklariga ega va Konstitutsiyamizda huquqiy mustahkamlangan “ijtimoiy davlat” tamoyillariga toʻla mos keladi.

Davlatimiz rahbari ish boshlagan ilk davrda asos solingan, yildan yilga takomillashib, hayotimizda chuqur qaror topayotgan va xalqimizni tom maʼnoda uygʻotayotgan mahallabay ishlash tizimi bugun iqtisodiy islohot darajasidan yuqori koʻtarilib, jamiyatimizga bunyodkor ruh va azaldan tadbirkor xalqimizga ilhom bagʻishlayotgan umummilliy harakatga aylandi.





“Matbuotda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonini o‘qib, ro‘yxatda kamina ham borligi tufayli ko‘zlarimda yosh halqalandi.

KUCH-G‘AYRATIMIZNI YOSHLAR KAMOLOTI, ILM-MA’RIFATIGA SAFARBAR ETAMIZ

Rahmatulloh SAYFUDDINOV, islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, “Imom Buxoriy” ordeni sohibi

Yosh ulg‘aygan sari kishining tafakkur tarzi ham, dunyoqarashi ham kengayib boraverar ekan. Ancha yillar oldin biror xushxabarni eshitsam, uni shundayligicha qabul qilardim. Endi esa hech bir yangilik, voqea-hodisa oddiy emas, balki ular zamirida hikmatlar borligini, Alloh taoloning inoyati, aziz insonlarning sharofati ekanini anglab yetyapman.



Matbuotda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonini o‘qib, ro‘yxatda kamina ham borligi tufayli ko‘zlarimda yosh halqalandi.

Bu quvonch yoshlari ikki buyuk siymo tufayli paydo bo‘ldi. Birinchisi, buyuk muhaddis Imom Buxoriy rahmatullohi alayh bo‘lsa, ikkinchisi, u ulug‘ zotning boy ilmiy merosini kelajak avlodga bezavol yetkazishga katta hissa qo‘shayotgan, alloma mangu qo‘nim topgan maskanni obod qilayotgan davlatimiz rahbaridir.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, ikkala orden ham buyuk muhaddis nomiga ta’sis etilgan: “Oliy Darajali Imom Buxoriy” hamda “Imom Buxoriy” ordeni. Bunday ordenning ta’sis etilishi muhaddislar sultoniga bo‘lgan ehtiromning oliy namunasidir. Shu bilan birga, avlodlarimizdan yana Imom Buxoriylar chiqishi uchun shu yo‘lda fidokorona mehnat qilayotgan olimlar, ulamolarga beriladigan mukofotdir.

“O‘zbekistondan yana Imom Buxoriylar chiqishi uchun nima qilish kerak? Avvalo, yosh avlodni bilimli, ma’rifatli, o‘dab-axloqli qilib voyaga yetkazish zarur. Buning uchun buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun muhim dasturulamal bo‘lishi kerak.

“Muhaddislar sultoni”, “Dunyo imomi”, “Rajulun Nabiy” kabi unvonlari bilan butun islom olamida katta shuhrat qozongan buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug‘ira Juafiy Buxoriyning shoh asari bo‘lmish “al-Jome‘ as-sahih” Qur’oni karimdan keyingi eng ishonchli manba hisoblanadi.

Misrlik olimlar “Sahihi Buxoriy”ga nisbatan “Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba” degan iborani ehitsalar, g‘azablanadilar. Buning boisi so‘ralganda: “Qur’oni karim, shubhasiz,



2025-yil
2-sentabr, 181-son

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz muqaddimasida “davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosi” alohida ta’kidlanadi.

SALJUQIYLAR DAVLATI

Siyosiy jarayonlar

O‘zbek xalqining davlatchilik tarixi, xususan, saljuqiylar davri turli siyosiy voqea va hodisalarga boy. Biroq bu davr tarixi juda kam o‘rganilgan. Aslida, aynan shu sulola vakillarining faoliyati bilan Markaziy va G‘arbiy Osiyoda qator tarixiy va etnomadaniy hodisalar, o‘zgarishlar yuzaga kelgan.

Saljuqiylar bugungi O‘zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Turkiya hududlaridagi tarixiy jarayonlarda faol qatnashib, o‘z davlati, siyosiy va harbiy uyushmalarini tashkil qilgan. Bu davlatlar XIII asrda mo‘g‘ullar bosqini tufayli inqirozga uchradi hamda yangi davlat va tuzilmalar tarkibiga singib ketdi. Saljuqiylarning vorislari keyinchalik G‘arbiy Osiyoda o‘z davrida muhim o‘rin egallagan Usmonli turk davlatini tuzishda qatnashdi.

Sulola asoschisi Saljuqbey o‘g‘uzlarning qiniq qabilasidan bo‘lgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Saljuqbeyning otasi Dukak (Do‘qoq yoki To‘qoq)bey edi. Dukak o‘g‘uzlar orasida “Temir yoy” laqabi bilan tanilgan. Bu nom uning katta mavqega ega ekanini bildiradi. Zero, qadimgi turkiy an‘analarda “kamon” hokimiyat ramzi bo‘lgan.

Saljuqiylar davlatiga Saljuqning nabirasi Sulton To‘g‘rulbey asos solgan. Saljuqiylar g‘aznaviylarga qarshi ko‘plab muvaffaqiyatli janglaridan so‘ng Nishopurni egallab, 1038-yilda o‘z yo‘lboshchisi To‘g‘rulbeyni sulton deb e’lon qiladi. Dandanakon jangidagi g‘alabadan so‘ng u Xuroson hukmdori bo‘ladi. Shu tarzda tarixda 1040-yili Buyuk saljuqiylar nomi bilan mashhur bo‘lgan turk davlati barpo etiladi.

Asta-sekin saljuqiylar Xuroson, Xorazm, G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroqni bo‘ysundiradi. Bag‘dodda To‘g‘rulbey nomiga xutba o‘qiladi. 1031-1075-yillarda hukmronlik qilgan abbosiyalar xalifasi al-Qoim hokimiyatni To‘g‘rulbeyga topshirib, uni sulton hamda “Sharq va G‘arb podshohi” deb tan olishga majbur bo‘lgan va qizini unga xotinlikka bergan. To‘g‘rulbey Rayni, uning ukasi Chag‘riy Dovud (990-1060-yillar) Marvni o‘ziga poytaxt qiladi. 1050-yilda To‘g‘rulbey poytaxtni Raydan Isfahonga ko‘chirgan.

Alp Arslon va Malikshoh hukmronligi davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o‘rnashgan edi. Ular 1071-yili Vizantiya imperatori Roman IV Diogenning 200 ming kishilik qo‘shinini yengib, butun Kichik Osiyoni (1071-1081-yillar), keyinchalik Suriya va Falastinni zabt etgan. Armaniston, Gruziya, Shirvonni ham bo‘ysundirgan. Bu davrda Balx, Termiz (1044-yil), Buxoro, Samarqand (1089-yil), keyinchalik Farg‘ona vodiysi saljuqiylar qo‘l ostida birlashgan.

Hatto Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularning ustunligini tan olgan. Alp Arslon poytaxtni Isfahondan Marvga ko‘chirgan. Saljuqiylar qo‘shini Arabiston yarimorolidagi Yaman va Bahrayn yerlarini ham tasarrufiga kiritgan. Malikshoh hukmronligi davrida saljuqiylar davlati harbiy-siyosiy jihatdan juda kuchli bo‘lgan. Bu vaqtda poytaxt yana Isfahonga ko‘chirilgan. XI asr oxirlarida saljuqiylar davlati Sharqiy Turkistondan O‘rta yer va Marmar dengizlarigacha bo‘lgan katta hududni o‘z ichiga olgan edi.

XI asr oxirlaridan saljuqiylar davlati parchalana boshlaydi. Chunki 1096-1099-yillardagi birinchi salib yurishi sabab saljuqiylar Gruziya,

Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo‘lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Xususan, buyuk vazir Nizomulmulk tomonidan 1067-yilda Bag‘dodda qurdirilgan Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo‘lgan.

bilan birga saljuqiylar va qoraxoniylarning birlashgan qo‘shinini tor-mor qilishi sabab Sanjarning kuch-qudrati zaiflasha boshlaydi. U Movarounnahr, keyinchalik Xurosonning asosiy qismidan ajraladi. Anushteginiylardan Qutbiddin Muhammad, xususan, Otsiz davrida Xorazm ham Saljuqiylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqilligini tiklagan. Otsiz hatto Saljuqiylar poytaxti Marvni egallab, 1141-1142-yillarda Nishopurni qamal qilgan. 1157-yili Sanjar vafot etgandan so‘ng saljuqiylarning Xurosondagi hukmronligi tugagan. Xuroson g‘uzlar (o‘g‘uzlar) tasarrufiga o‘tgan. 1117-yilda saljuqiylarning Shom (Suriya) sultonligi, 1187-yilda Kimron sultonligi ham tugatilgan. Xorazmshohlar XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab g‘arbiy saljuqiylarning Iroq sultonligiga kuchli zarbalar bergan. Xorazmshoh Takash Iroq sultonligini ham tor-mor qilib, 1194-yili o‘z davlatiga ko‘shib olgan. Faqat Kichik Osiyodagi Ko‘niya (Onado‘li yoxud Rum) sultonligi XIV asr boshlarigacha hukm surgan.

aloqalarni muvofiqlashtirib turgan, rasmiy qabullarni uyushtirgan. Horis amiri (amiri horis) sulton chiqargan jazo hukmlarini ijro etish bilan shug‘ullangan. Saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa, shulgonga taalluqli narsalarni saqlash silohdorning zimmasida bo‘lgan. Dargoh ishlarini boshqaruvchi xos vakil, sulton bayrog‘ini olib yuruvchi alamdor deyilgan. Sulton va dargoh xavfsizligini ta’minlash jondorga yuklatilgan. Shuningdek, dargoh faoliyatini ta’minlashda jomador, sharobdor, chashnegir (sultonning ovqatlanishiga mas’ul), sarhang, miroxur, toshdior kabi mansabdorlarning ham o‘z o‘rni bo‘lgan.

Davlatning asosiy ma’muriy qarorgohi bo‘lgan devonlar ikki toifaga — sulolaviy va rasmiy devonlarga bo‘lingan. Sulolaviy devon hukmdor xonadoni faoliyatiga bog‘liq vazifalar bilan shug‘ullangan. Rasmiy devonlar quyidagicha: kichik devonlar (devoni sag‘ir), devoni tug‘ro va insho, devoni istifo (yoki devoni zimam va istifo), devoni ishrof va mamolik hamda devoni arzdan iborat bo‘lgan.



Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi, hududining kengayib borishi va yuksalishida ushbu davlatda yo‘lga qo‘yilgan harbiy ishi va qo‘shin tuzilmasi katta ahamiyat kasb etgan. Saljuqiylar davlati harbiy tizimida Markaziy Osiyo turkiy harbiy an‘analari katta o‘rin tutgan.

Davlat boshqaruv tizimi

Saljuqiylar davlati tepasida oliy hukmdor maqomidagi sulola xonadoni vakili turgan. U sulton (sulton ul-a‘zam) unvoniga ega bo‘lib, nomiga xutba o‘qilib, tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros bo‘lib o‘tgan. Mulk, yer-usuq taqsimoti, muhim davlat va boshqaruv lavozimlariga tayinlash, davlat kirim-chiqimidan xabardor bo‘lish, qo‘l ostidagi amaldorlar va xizmatchilar faoliyatini nazorat qilib turish uning vakolatlariga kirgan.

Davlatda sultondan keyingi oliy mansabdor shaxs bosh vazir bo‘lgan. U barcha devon (vazirliklar) faoliyatiga rahbarlik qilgan. Uning ish joyi ulug‘ devon (devoni kabir yoki devoni oliy) bo‘lgan. Bosh vazirning vakolati juda keng bo‘lib, moliya, soliq, davlatga tegishli ishlab chiqarish muassasalari ishini nazorat qilish, xorijiy davlatlar namoyandalari bilan mulokat va muzokaralar olib borish, xizmatchilarni ishga olish yoki ishdan bo‘shatish, umuman olganda, davlatning ichki va tashqi siyosati bilan bog‘liq barcha masalani sulton nomidan hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan. Faqat yer-mulk taqsimlash vakolati sultonning ixtiyorida qolgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimi ham somoniylar, qoraxoniylar va g‘aznaviylar boshqaruv tizimi kabi ikkiga — dargoh va devonga bo‘linagan. Dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lgan. Ulug‘ hojib dargohdagi sultonga eng yaqin kishi bo‘lib, dargoh bilan devonlar o‘rtasidagi

Sulton saroyida turli darajadagi amal va mansablar qatori vazir(lar), amir, amir ul-umaro, malik, malik ul-umaro, hojib, hojibi xos, amir, hojib, vakildor, munshiy, toshdior, sipohsolor, mustavfiy, muhrdor, jondor, otabek, rikobdor, hujjatnavis, amiri alam (amiri dod), turli xodim va nadimlar, yana o‘nlab boshqa amallar bo‘lgani manbalarda aks etgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliyilar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lgan. Voliyilar sulton tomonidan tayinlanib, butun viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohaga rahbarlik qilgan.

Tuman, shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarnikiga o‘xshagan, faqat harbiy faoliyat bundan mustasno bo‘lgan.

Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi, hududining kengayib borishi va yuksalishida ushbu davlatda yo‘lga qo‘yilgan harbiy ishi va qo‘shin tuzilmasi katta ahamiyat kasb etgan. Saljuqiylar davlati harbiy tizimida Markaziy Osiyo turkiy harbiy an‘analari katta o‘rin tutgan.

Iqtisodiy hayot

Keng hududda siyosiy barqarorlikka erishish, yangi kanallar qurish, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va savdo rivojlanishi tufayli iqtisodiy hayot yuksak darajaga ko‘tarildi. Movarounnahr, Xorazm, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Suriya va Onado‘lida savdo karvonlari xavfsiz harakatlanishi ta’minlangan. Shaharlarda ishlab chiqarilgan tovarlar savdo yo‘llari orqali

ko‘plab joylarda bemalol sotilgan. Karvonlarning xavfsizligini odatda harbiy soqchilar ta’minlagan. Saljuqiylarning savdo yo‘llariga qaratgan e’tibori, ayniqsa, Onado‘lida ancha kuchaygan va xalqaro savdo rivojiga yordam bergan.

Buyuk saljuqiylardan To‘g‘rulbey, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrida iqtisodiy va madaniy hayotda katta yuksalish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy etgan, to‘qimachilik, kulochilik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko‘nchilik va gilam to‘qish rivojlangan. Buyuk ipak yo‘li ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali o‘tgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan.

Malikshoh Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini bojdand ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) ishlatilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo‘lgan.

Saljuqiylar davrida xomashyosi chorvachilik va dehqonchilikka mos va unga tayangan sanoat barpo etilgan edi. Ayniqsa, Turkiston shaharlarining junli, paxtali, ipakli matolari, Buxoro jaynamozi, Xuroson kamarlari juda mashhur edi. Samarqandning kumush taqinchoqlari, Toshkentning egar-jabduqlari atrofda o‘lkalarda juda qadrlangan. Xitoy chinnisini islom dunyosida tarqatganlar ham saljuqiylardir.

Bundan tashqari, turklarning muvaffaqiyatli yana bir sanoat turi ma’dan qazib olish sohasi edi. Ko‘mirni qazib olib, yoqilg‘i sifatida foydalanarlar ham saljuqiylar. Turklar qurol-yarog‘ borasida ham shuhrat qozongan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi (Axsikent)da qurol-yarog‘ ishlab chiqarish juda rivojlangan. Ishlab chiqarilgan qurollar Vizantiya chegaralarigacha eksport qilingan.

Fan va madaniyat

Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo‘lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Xususan, buyuk vazir Nizomulmulk tomonidan 1067-yilda Bag‘dodda qurdirilgan Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo‘lgan. Nizomulmulk davlatni boshqarish asoslari haqida “Siyosatnoma” asarini bitgan.

Saljuqiylar davlatida Bahovuddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Abulxotam Muzaffar Isfzoriy, Zahiriddin G‘aznaviy riyoziyot va ilmi nujumda, Ismoil Jurjoni, Faxriddin Roziy tibbiyot va kimyoda, Zahiriddin Nishopuriy, Sadriddin Husayniy, Anushirvon Koshoniy, Abu Bakr Ravondiy tarixda, adib Sobir Termiziy, Nosir Xusrav, Anvari, Asiriddin Axbakatiy, Ralif Marvaziy adabiyotda ko‘plab bebaho asarlarni bitgan.

Bu davrda Nishopur, Marv, Isfahon, Ray, Hamadon kabi poytaxt shaharlarda, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Termizda ko‘plab me’moriy obidalar qurilgan.

Tarixchi va sayyoh Yoqut Hamaviy Marvda bo‘lganida bu yerda 10 ta yirik kutubxona borligini ko‘rgan va ulardan foydalangan. Termiz yaqinidagi Payg‘ambar orolida Zulkiif majmuasi (XI-XII asrlar), Sulton Saodat me’moriy majmuasi (XI-XVIII asrlar), Jarqo‘rg‘on minorasi (1109-yil), Marvda Sulton Sanjar maqbarasi (XII asr) va boshqa me’moriy obidalar qurilgan.

Saljuqiylar 250 yillik tarixi davomida rivojlangan davlat va jamiyat tizimiga ega edi. O‘z davrida Sharq va G‘shda Buyuk saljuqiylar davlatidan ustun davlat bo‘lmagan. Bu sultonlikni ular sohibi bo‘lgan muassasalar va iqtisodiy kuchdan iborat. Bir tomondan Sharqiy Rim (Vizantiya) imperiyasi siyosiy kuchini bartaraf etgan saljuqiylar, avvalo, tijorat va musofirlar xavfsizligini ta’minlagan karvonsaroylari, qolaversa, ilg‘or bilim va tajribaga ega shifoxonalari bilan davrning eng rivojlangan mamlakati edi. Bu sulola xazinaga kelib tushgan pul ko‘pligi va urush maydonlaridagi g‘alabalari bilan maqtanmasdi. O‘sha davrda saljuqiylar deganda bilim, madaniyat, san’at, adolat, xavfsizlik va tibbiy xizmat yodga tushardi.

Saljuqiylar davlatida Nizomulmulk sa’y-harakati bilan ma’muriy apparat, harbiylik, soliqlarni tashkil etish, ta’lim kabi sohalar faoliyatini tartibga soladigan qoida va namunalarni tuzatga kelgan. Ular keyinchalik xorazmshohlar va mintaqadagi boshqa davlatlarning ma’muriy boshqaruv tizimi shakllanishi va evolyutsiyasiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Zikrilloxon QODIROV, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Yuksak milliy ruh

MUTOLAADAN QO'R OLGAY

KITOBXONLIK VA KITOBDORLIK HARAKATLARIMIZGA BIR NAZAR



Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ko'zlarida bilimga tashnalik va intilish ufurib turgan ayni yoshlar — mustaqillikning eng sof mevalari. Bu mustaqillik bergan eng bebaho ne'matlardan biri — mutolaa erkinligining amaldagi ifodasi. Qo'ldagi kitob orqali kishi nafaqat yangi bilim oladi, balki o'timishdagi ajdodlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari, adabiy qahramonlar timsolida butun insoniyat bilan suhbat quradi. Kitob mutolasi empatiya tuyg'usini, o'zgalarning dardini his qilish, dunyoga kengroq va teranroq nazar tashlash qobiliyatini tarbiyalovchi eng samarali vosita, desak adashmagan bo'lamiz.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, xalqimiz uchun nafaqat yangi imkoniyatlar eshigi ochildi, balki yillar davomida yashirin kelingan ma'naviy xazinalarimiz o'z egalariga qaytarildi. Mustabid tuzum davrida millat xotirasini o'chirishga, uni o'z ildizlaridan uzib qo'yishga qaratilgan harakatlar tufayli butun bir avlod o'z tarixining eng yorqin sahilalaridan beharra qolgan edi. Mafkuraviy kishanlar nafaqat adabiyotni, balki tarixni, falsafani, hatto tilshunoslikni ham o'z izmiga solishga uringandi. Temuriylar davri "bosqinchilik" deb baholanan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi esa har xil tamg'alar bilan omma e'tiboridan chetda saqlanardi.

Aynan mustaqillik sharofati bilan biz tariximizga, o'zligimizga teranroq nazar tashlash imkoniga ega bo'ldik. Jadid bobolarimiz Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon kabilarning asarlari, sovet mafkurasi tomonidan "xalq dushmani" deya tamg'alangan ulug'larimizning ilmiy va adabiy merosi xalqqa qaytdi.

Yoshi kattalardan eshitganim — sobiq sovet ittifoqida "samizdat", ya'ni yashirin adabiyotlar tarqatish keng ommalashgan bo'lsa, mamlakatimizda bu hodisaning o'ziga xos ko'rinishi mavjud edi. Bu yerda "samizdat" nafaqat siyosiy risolalar, balki bobolardan qolgan Navoiyning devonlari, tasavvuf she'riyati namunalari yashirincha ko'chirilib, avloddan avlodga o'tkazib kelingan qo'lyozmalar edi. Xalqimiz ma'naviy xazinasini ana shunday asrab-ayaylab, istiqloq kunlariga yetkazdi. Mustaqillik esa ana shu

yashirin xazinani sandiqlardan olib, keng omma e'tiboriga havola etish imkonini tuhfasi qildi.

Fitratning millatni taraqqiyotga chorlovchi publitsistikasi, Cho'ponning erkinlik va istiqloq sog'inchi bilan yo'g'rilgan she'riyati, Behbudiyning ma'rifat orqali najot topishga da'vat etuvchi fikrlari yoshlar uchun haqiqiy ma'naviy kompasga aylandi. Aynan shu kitoblar orqali milliy o'zlikni tanish jarayoni baholiqdurat tezlashdi. Yosh avlod ongiga o'zbekning shunchaki bir millat emas, balki buyuk tarix, betakror madaniyat va ulkan intellektual salohiyatga ega xalq ekani haqidagi tushuncha chuqur singa boshladi. Ayni kitoblar bizga kimligimizni, ajdodlarimiz qanday euzu maqsadlar yo'lida kurashganini va kelajakni qanday bunyod etishimiz kerakligini uqtiruvchi mayoq kabi edi.

Albatta, har qanday erkinlik o'zida ham ijobiy, ham sinovli jihatlarni mujassam etadi. Kitob nashr etish va tarqatish erkinligi ham bundan mustasno emas. Yaqin-yaqin yillargacha mavjud bo'shliqni to'ldirish istagi, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos qonuniyatlari natijasida muayyan muddat kitob rastalarini



sayoz, yengil-yelpi, hikoyabozlikdan nariga o'tmaydigan asarlar bosib ketdi. Achinarlisi, ayni shunday kitoblar katta adadlarda chop etilib, ommalashdi. Mumtoz adabiyotimiz namunolari, jahon adabiyotining durdona asarlari peshtaxtalarda chang bosib yotgan bir paytda saviyasi past adabiyotlar savdosi gurkiradi. Buning ijtimoiy-psixologik sabablari bor edi, albatta. Yillar davomida qat'iy belgilangan ro'yxatdagi adabiyotlarnigina o'qishga majbur bo'lgan kitobxon endi o'ziga taqdim etilgan har qanday "yangi" mahsulotni ishtiyoq bilan qabul qila boshladi. Bu xuddi uzoq vaqt parhezda bo'lgan insonning dasturxonidagi barcha noze-ne'matlarga tashlanishiga o'xshar edi. Oddiy

sevgi qissalari, sarguzasht-detectiv asarlar, hayotiy voqealarga yuzaki asoslangan hikoyalar o'sha davr kitobxonining ehtiyojlariga "tez va oson" javob berayotgandek tuyuldi.

Shu bilan birga, o'sha murakkab davrda oila va maktabning yo'naltiruvchi roli bir qadar susayganini tan olish kerak. Katta avlod vakillari mumtoz adabiyotni qadrlasa-da, yoshlarga bozor munosabatlari sharoitida qaysi kitobni tanlash kerakligi borasida yetarlicha yo'l-yo'riq ko'rsata oldi, deyshiga ikkilanamiz. Natijada yosh kitobxon ommaviy madaniyatning rang-barang, biroq sayoz takliflari qarshisida yolg'iz qoldi. Biroq bu jarayonga faqat salbiy baho berish biryoglamalik bo'ladi. Bu holatni milliy kitobxonlik madaniyatimizning muayyan adaptatsiya bosqichi, o'ziga xos davriy deb qabul qilish lozim. Xalqimiz bu sinovdan o'tib, oqni qoradan, bebahoni arzondan ajratishni o'rgandi. Go'yoki ma'naviy "fast-fud"dan to'yingan jamiyat vaqt o'tib, yana mazmunan boy, to'yimli va foydali "milliy taom" — jiddiy adabiyotni qo'msay boshladi. Mazkur davr jamiyatimizning badiiy didini tarbiyalashda, kitobga nisbatan talabchanlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugunga kelib ushbu badiiy jarayon pishib yetilib, kitobxonlik madaniyati asta-sekin o'z iziga qaytmoqda. Endilikda aksar kitobxonalarda asarlarni shunchaki emas, balki saralab, tanlab, tahlil qilib o'qish ko'nikmasi shakllandi.

Bugungi kunda nashriyot-matbaa sohasi jadal rivojlanib borayotgani kishini quvontiradi. Sifatli va mazmunli kitoblar chop etishga ixtisoslashgan o'nlab nashriyotlar faoliyat yuritayotgani ijobiy holat. Ularning aksariyati jahon adabiyotining zamonaviy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, kitobxonlar e'tiboriga havola etmoqda. Endi nashriyotlar nafaqat mazmunga, balki kitobning dizayni, muqovasining jozibadorligi, qog'ozining sifati kabi jihatlarga ham jiddiy e'tibor qaratayotir. Ular o'rnatidagi sog'lom raqobat esa kitobxonlik madaniyati yuksalishiga xizmat qilmoqda. Bugun kitob do'konlariga kirsangiz, nafaqat badiiy adabiyot, balki shaxsiy rivojlanish, biznes, psixologiya, ilmiy-ommaboy yo'nalishlardagi eng so'nggi asarlarning sifatli tarjimalarini topishingiz mumkin. Biroq bu sohada o'ziga yarasha iqtisodiy qiyinchiliklar yo'q emas. Qog'oz narxining oshib borishi, matbaa xarajatlari kitobning tanmoxiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu bo'is, nashriyotlar uchun barqaror iqtisodiy modelni imkon qadar tezroq shakllantirish asl muddao.

Bugungi kunda bolalar adabiyotiga e'tibor kuchayayotgani kelajak uchun qo'yilgan eng mustahkam poydevor, desak adashmaymiz. Rang-barang rasmlar bilan bezatilgan, bolalar psixologiyasini inobatga olgan holda yozilgan ertaklar, she'rlar va ma'rifiy kitoblar yosh avlodning kitobga mehr qo'yishida, ularning tafakkuri va tasavvur olamini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. Bolaligidan kitobga oshno bo'lgan farzand ulug'aygach ham unga sodiq do'st bo'lib qolishi shubhasiz. Shu bilan birga, zamon o'zgarishlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Elektron va audiokitoblar

ommalashuvi kitobxonlik uchun yangi uflarni ochmoqda. Yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga moyilligini hisobga olib, ushbu platformalardan unumli foydalanish, milliy adabiyotimizning eng sara namunalarini elektron formatga o'tkazish va ularni keng omмага qulay tarzda yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Shu o'rinda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Mutolaa" ilovasi yaratilib, uning yaxshi samara berayotganini qayd etib ketishni istardim.

Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani sohada ulkan yutuqlarga zamin yaratmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning to'rtinchisi aynan yoshlar

katta rezonans uyg'otdi. "Qo'rqma" romani nafaqat o'tgan asr fojialari haqida, balki bugungi kun kishisi oldida turgan ma'naviy tanlovlar, o'zlikni anglash yo'lidagi qo'rquvlarni yengib o'tish zarurati haqida bahs yuritgani bilan ham qimmatli. Uning misolida zamonaviy o'zbek adabiyoti jamiyatni o'ylantirayotgan eng og'riqli muammolarga javob izlashga qodir ekanini isbotladi.

Shu o'rinda bugungi kun yozuvchisining zimmasidagi mas'uliyat haqida to'xtalish joiz. Yangi O'zbekiston yozuvchisi shunchaki ijodkor emas, u o'z davri solnomachisi, jamiyat vijdonining ovozidir. Uning vazifasi faqat yutuqlarni madh etish yoki kamchiliklarni fosh qilishdangina iborat emas. Yozuvchining burchi



ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rntasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgani bejiz emas. Shu asosda respublikamizning eng chekka hududlarida ham yangi kutubxonalar ochilmoqda, mavjudlari zamonaviy axborot-resurs markazlariga aylantirilmoqda. Bugungi kutubxona shunchaki kitob saqlanadigan joy emas. Ular yoshlar yig'iladigan, fikr almashadigan, yangi loyihalar ustida ishlaydigan jonli ijtimoiy makonlarga, o'ziga xos co-working markazlarga aylanib bormoqda.

"Yosh kitobxon" kabi tanlovlar ommalashuvi minglab yigit-qizlarni kitob olamiga oshno qildi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan jadid ma'rifatparvarlari merosini o'rganish va targ'ib qilishga qaratilgan turkm kitoblar nashr etilishi yoshlar orasida katta aka sado berdi. Bu loyiha tarixiy shaxslarni shunchaki quruq biografik ma'lumotlar orqali emas, balki ularning tirik, jo'shqin, xalq dardi bilan yashagan insonlar sifatidagi obrazini yaratib bera olgani bilan ahamiyatlidir. "Akademnazh" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Islam" turkum to'plamlari esa zamonaviy o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalarini jamlab, kitobxonlar tomonidan sevib o'qilayotir. Yozuvchilar uyushmasi ham so'nggi yillarda badiiy yuksak, milliy ruh bilan sug'orilgan eng o'nlab asarlarni kitobxonlarga taqdim etmoqda.

Yosh yozuvchi Javlon Jioyliyevning "Qo'rqma" romani nashr etilishi adabiy hayotimizda quvonchli voqea bo'ldi. Bu asar o'zining dolzarbligi, teran falsafiy mushohadalari bilan keng kitobxonlar ommasi e'tirofiga sazovor bo'lib, o'qirmanlar orasida

inson qalbining eng chuqur qatlamlariga kirib borish, zamonamiz qahramonining murakkab ichki dunyosini, iztiroblariyu quvonchlarini, fojiasiyu yuksalishini haqqoniy aks ettirishdir. Ana shundagina adabiyot o'zining euzu vazifasini — insonni ma'naviy poklash va yuksaltirish vazifasini bajara oladi.

Shu o'rinda bir muhim haqiqatni aytib o'tish kerak: kitob shunchaki ma'lumot tashuvchi vosita emas, u kuchli targ'ibot quroli hamdir. Har bir asar ortida muayyan g'oya, dunyoqarash, ba'zan esa yashirin maqsadlar turishi mumkin. Globallashuv sharoitida dunyoning turli nuqtalaridan kirib kelayotgan adabiyotlar orasida milliy mentalitetimizga, an'anaviy qadriyatlarimizga zid g'oyalarni targ'ib qiluvchi, tarixni soxtalashtirishga urinuvchi, yoshlar ongida iste'molchilik kayfiyatini yoki aksincha, niglizmni shakllantirishga qaratilgan asarlar ham uchrab qolishi ehtimoldan xoli emas. Aynan shuning uchun millat ziyollilari, adabiyotshunorlar, tanqidchilar va keng jamoat-chilik yangi chop etilayotgan har bir kitob bilan muntazam tanishib borishi, ulardagi g'oyalarni tahlil qilib, jamiyatga sog'lom va xolis axborot yetkazib turishi ayni muddao bo'lgan bo'lardi.

Ziyollilarning vazifasi shunchaki "Bu kitobni o'qing, bunisini o'qimang", deb ko'rsatma berish emas, balki jamiyatda tanqidiy tafakkur madaniyatini shakllantirishdan ham iborat. Shu bilan birga, jahon adabiyotini tarjima qilishdan cho'chimaslik kerak. Bu jarayon madaniyatlar muloqotidir. Boshqa xalqlar adabiyotini o'qir ekanimiz, biz nafaqat ularning turmush tarzi, o'y-fikrlari bilan tanishamiz, balki o'zligimizni

ham chetdan turib ko'rish, qadriyatlarimizni qayta tahlil etish imkoniga ega bo'lamiz. Bu bizga o'z milliy g'oyamizni dunyoga yanada aniqroq va tushunarliroq tarzda yetkazishimizga yordam beradi.

Sog'lom adabiy muhitning eng muhim shartlaridan yana biri xolis va professional adabiy tanqidchilikning mavjudligidir. Adabiy tanqid — adabiyotning sanitari. Uning vazifasi asarni chuqur tahlil qilish, yutuqlarini e'tirof etish barobarida kamchiliklarini ham professional asoslab berishdir. Afsuski, bugungi kunda bu soha bir qadar oqsoqlanmoqda. Yuzaki maqtovlar yoki asossiz tanqidlar adabiy jarayonga faqat zarar keltiradi. Bizga asarning badiiy-estetik qimmatini, g'oyaviy yo'nalishini va adabiyotdagi o'rinni belgilab bera oladigan, yozuvchiga ijodiy o'sish uchun turkii, kitobxonga esa to'g'ri yo'nalish taqdim etadigan professional tanqidchilar maktabi suv va havodek zarur. Toki har bir kitobxon asarni o'qiganda uning satorrti ma'nolarini uqa olsin, muallifning pozitsiyasini tahlil qila bilsin va undan o'zi uchun to'g'ri xulosa chiqarsin.

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining yuksak martabali xorijiy mehmonlarga kitob sovg'a qilishi euzu an'anasi shakllangani, bundan boshqa davlatlar ham namuna olayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu shunchaki diplomatik protokolning bir qismi emas, balki O'zbekistonning o'z ma'naviy qudratini, ilmfan va adabiyotga bo'lgan yuksak ehtiromini butun dunyoga namoyon etuvchi euzu va oqilona tashabbus hisoblanadi. Buni men mamlakatimizning o'zini dunyoga nafaqat iqtisodiy yoki turistik salohiyatga ega davlat, balki buyuk sivilizatsiya vorisi, tafakkur beshigi sifatida tanitishga qaratilgan o'ta ijobiy harakat deb tushunaman.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida kitobxonlik va noshirlik sohasida uzoq va mashaqqatli, ayni damda sharaflii yo'lni bosib o'tdik. Tafakkur ozodligidan boshlangan bu yo'l bizni milliy o'zlikni anglashga, o'z kuchimiz va salohiyatimizga ishonishga o'rgatdi. Bugungi kunda erishgan natijalarimiz salmoqli. Metroda kitob o'qiyotgan yigit-qizning simyosida biz ertangi kunimizning poydevorini ko'ramiz. Agar biz ana shu to'g'ri yo'ldan og'ishmay, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib boraversak, ishonch bilan aytish mumkinki, mustaqilligimizning 50 yillik ulug' shodiyonasini nishonlayotganimizda, bugungi yutuqlarimiz yanada yuksalib, O'zbekiston dunyoning eng intellektual rivojlangan, kitobxon millatlaridan biri sifatida tan olinajak. Buning uchun biz "Kitobxon millat" g'oyasini shunchaki shior darajasida emas, balki har bir oila, har bir mahalla, har bir ta'lim muassasasi hayotining ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim. Bu shunchaki davlat yoki ziyolilarning vazifasi emas, har bir ota-onaning farzandi qo'lga kitob tutqazishdagi mas'uliyati, har bir o'qituvchining o'quvchisida mutolaaga ishtiyoq uyg'otishdagi mahorati, har bir tadbirkorning o'z jamoasida kitobxonlikni rag'batlantirishdagi tashabbusidir. Bu umummilliy harakatga aylanishi zarur bo'lgan euzu maqsad.

Maqsadimiz kelajakda o'zbek mualliflarining asarlari jahon tillariga tarjima qilinib, xalqaro adabiy mukofotlarga sazovor bo'lishi, kutubxonalarimiz yoshlar bilan doim g'ayog, ilm va ijod maskanlariga, intellektual salohiyat esa mamlakatimiz innovatsion taraqqiyotining asosiy dvigateliga aylanishidir. Zero, kitobga e'tibor — kelajakka e'tibor. Millatning ma'naviy yuksalishi esa uning moddiy farovonligi va davlatining qudratini ta'minlovchi eng mustahkam poydevor bo'lib qolajak.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyyati” DM		Tahririyyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946. 34830 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.		Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro‘ziyev	
MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi		Bosh muharrir: Salim DONIYOROV		Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.		Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrısabz ko‘chasi, 85-uy	
Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05				Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.		O‘za yakuni — 23:35	